

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

QORA TRIADANING XUSUSIYATLARI VA UNGA MOYILLIGI MAVJUD ISHLASH

Rajabov Murodil Jumaboyevich

Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasи katta o‘qituvchisi

Xaydaraliyev Abdullo Usmonali o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti Psixologiya yo‘nalishi magistranti

Аннотация:

Maqlada qora triada va bu odamlarda bir-biriga bog‘liq bo‘lgan uchta shaxsiy xususiyatlarni ifodalanishi narsisizm, makiyavelizm, psixopatiya, bunday xususiyatga ega odamlarni qanday aniqlash va bunga moyil odamlar bilan qanday ishlash mumkinligi haqida fikrlar yoritilgan

Аннотация: В статье рассматривается черная триада и то, как эти люди выражают три взаимосвязанные черты личности: нарциссизм, макиавеллизм, психопатия, как идентифицировать людей с этой чертой и как работать с людьми, склонными к ней

Abstract: The article discusses the Black Triad and the expression of three interrelated personality traits in these people: narcissism, Machiavellianism, psychopathy, how to identify people with these traits and how to work with them

Калит сўзлар: qora triada, narsisizm, makiyavelizm, psixopatiya, qora triadaning xususiyatlari, g‘azab, qo‘rqitish, manipulyatsiyani aniqlash, ko‘nikmalarni rivojlantirish

Ключевые слова: черная триада, нарциссизм, макиавеллизм, психопатия, черты черной триады, гнев, запугивание, обнаружение манипуляций, развитие навыков

Keywords: Black Triad, Narcissism, Machiavellianism, Psychopathy, Black Triad Traits, Anger, Intimidation, Manipulation Detection, Skill Development

Mamlakatimizda “Yangi O‘zbekiston – uchunchi Renessans poydevori” shiori ostida barcha sohalarda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta’lim

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

tizimidagi islohotlar ma’naviy-ma’naviy jihatdan sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash uchun poydevor vazifasini o’tamoqda. Bu jarayonda inson ruhiyatini, hayollar dunyosini o‘rganish ham muhim yo‘nalishlardan biridir. Har bir inson samimiylilik, ochiq ko‘ngillik kabi ijobiy fazilatlari bilan bir qatorda, atrofidagilarga xalaqit beradigan va salbiy deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan xarakter xususiyatlariga ham ega. Bularga beqarorlik, takabburlik, despotizmlarni misol bo‘la oladi. Jamoaviy ishlarni bajarish davomida butun bir tashkilotga putur etkazadigan uchta xususiyat mavjud bo‘lib, psixologiyada qora triada deb ataladi. Zamonaviy dunyoda insonlar kim bo‘lishidan qat‘iy nazar manipulyator hisoblanadi. Ushbu qobiliyat har birimiz uchun xos bo‘lib, barchamiz o‘z foydamizni ko‘zlab turli hiylalardan foydalanamiz. Albatta har bir manipulyativ harakatlar yomonlik hisoblanmaydi. Bugungi kunda manipulyativ harakatlar muammosini ko‘p uchratishimiz mumkin. Masalan, bozordagi sotuvchilarning aldoi, deyarli har daqiqada tinchimizni buzadigan oynayi jahondagi reklamalar, ijtimoiy tarmoqlardagi PR larni aytib o‘tish mumkin. Ijtimoiy munosabatlarda bizga o‘z fikrlarini o‘tkazmoqchi bo‘layotganlarga qarshi tura olishimiz uchun manipulyatsiyaning ma’nosini tushunmog‘imiz lozim. Psixologiyada «Qora triada» tushuncha mavjud bo‘lib, bu orqali insonlarga ta’sir o‘tkazish, ularni ma’lum yo‘nalishga unday olish mumkin.

Qora triada bu odamlarning bir-biriga bog‘liq bo‘lgan uchta shaxsiy xususiyatlarni ifodalaydi: narsisizm, makiyavelizm va psixopatiyalardir.

Narsisizm: Bu atama ko‘zgusidagi o‘z aksini sevib, dengizda cho‘kib ketgan ovchi Narsissa haqidagi yunon afsonasidan kelib chiqqan. Narsistik odamlar ko‘pincha xudbin, maqtanchoq, takabbur va tanqidga o‘ta sezgir bo‘ladi. Shuningdek, ular empatiyani rivojlantira olmaydilar.

Psixoanaliz asoschisi Zigmund Freyd o‘zining «Narsissizm haqida; Kirish» nomli risolasida narsisizmni quyidagicha tariflaydi:

“Hamma odamlar tug‘ilganidan boshlab narsissizm darajasiga ega (birlamchi narsissizm) va bu narsissizm sog‘lom xarakterga ega hamda vaqt o‘tishi bilan boshqalarga bo‘lgan muhabbat sifatida namoyon bo‘ladi”.

1925-yilda birinchi bo‘lib Robert Waelder narsissizmni shaxsiy xususiyat sifatida konsepsiyalashtirgan. Uning ta’rifi kamsituvchi, o‘zini boshqalardan ustun his qiladigan, tez-tez o‘zidan hayratlanadigan va boshqalarga hamdarlik ko‘rsatmaydigan shaxslarni tasvirlaydi.

Makiyavelizm: Ushbu atama italyan siyosatchisi Nikkolo Makiavelli nomidan kelib chiqqan. U "Suveren" kitobini yozganidan keyin shuhrat qozondi va uning

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

nomi mashhur bo‘lib ketdi. Makiavelli kuchli davlatni mustahkamlash uchun barcha vositalar - zo‘ravonlik, qotillik, yolg‘on va xiyonatdan foydalanish mumkinligiga ishonchi komil edi. Psixologiyada bu atama manipulyatorlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Psixopatiya: Psixopatiya bilan bog‘liq shaxsiy xususiyatlarga empatiya va pushaymonlikning yo‘qligi, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar, manipulyatsiya va o‘zgaruvchanlik kiradi. Psixopat va psixopatik moyilligi bo‘lgan odamlarni farqlay olish kerak. Psixopat odamlarning faoliyati har doim jinoiy zo‘ravonlikni olib keladi.

Tadqiqotchi psixolog Robert D.Xare o‘zining 1993-yilgi maqolasida psixopatlarni quyidagicha tariflaydi:

“Psixopatlar o‘z xatti-xarakatlari bilan kishilarni maftun etadigan, manipulyatsiya qiladigan, so‘ng shafqatsizlarcha tashlab ketib, singan yuraklar, umidlar va bo‘sha hamyonlar izlarini qoldiradigan ijtimoiy yirtqichlardir. Ularda vijdon va boshqalarga nisbatan his-tuyg‘u butunlay yo‘q, psixopatlar xudbinlik bilan xohlagan narsalariga erishadilar va zarracha aybdorlik his qilmasdan yoki afsuslanmasdan, ijtimoiy me’yorlarni buzadilar”.

Qora triadaning xususiyatlarini qanday aniqlash mumkin. Psixolog professor Piter Jonason va uning yordamchisi Gregori Webster qora triadaning xususiyatlarini o‘lchash usulini ishlab chiqdilar. Ular odamlardan quyidagi misollardan o‘zlariga tegishli bo‘lganlarini baholashlarini so‘rashdi:

- Men o‘zimning manfaatim uchun boshqalarni manipulyatsiya qilishga moyilman.
- Men yolg‘onni o‘z manfaatim uchun ishlata olaman.
- Men xushomadgo‘ylikni o‘z manfaatim uchun ishlata olaman.
- Men boshqalardan o‘z manfaatim uchun foydalanishga moyilman.
- Men afsuslanmaslikka moyilman.
- Meni xatti-harakatlarimning axloqiy tomoni tashvishlantirmaydi.
- Men qo‘pol bo‘lishga moyilman.
- Men odobsiz bo‘lishga moyilman.
- Odamlar meni hayratda qoldirishlarini istayman.
- Odamlar menga e’tibor berishlarini xohlayman.
- Men alohida maqomga erishishga moyilman.
- Men boshqalardan alohida iltifot kutaman.

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

Albatta, odamlar o‘z manfaati uchun yolg‘on gapishlari mumkin, ammo biz qora triadaga moyil bo‘lgan odamlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni yuqoridagilarda ko‘rishimiz mumkin.

Tajribali psixologlarning ta’kidlashicha, qora triadaga moyil odamlarning xarakter xususiyatlarining bir necha o‘nlab darajalari mavjud va bundan tashqari, ularning xatti-harakatlari kundan-kunga sezilarli darajada o‘zgarishi mumkin.

Rahbar qo‘l ostidagixodimlarning salbiy xatti-harakatlarini aniqlashi va jamoada uyg‘unlikni saqlashi uchun qora triadaga moyil odamlar bilan qanday kurashishni ba’zilarini ko‘rib chiqaylik:

G‘azab. Psixopatik xususiyatlarga ega odamlar asossiz g‘azab va tajovuzni boshdan kechirishi mumkin, shuning uchun siz bunday vaziyatlarni tezda bartaraf etishingiz kerak. Ba’zi odamlar g‘azabni ochiq namoyon qiladilar, boshqalari esa uni ichiga yutadi va bostiradilar. Bunga misol sifatida passiv-agressiv xatti-harakatlarni keltirish mumkin.

Qo‘rqitish.Qo‘rqitish, asosan, og‘zaki haqorat va tahdidli xatti-harakatlar ko‘rinishida bo‘ladi, lekin u boshqa odamni kamsitish va mish-mishlarni tarqatish, konstruktiv bo‘lmagan tanqid shaklida ham namoyon bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda siz bezorilik qurbanini qo‘llab-quvvatlang va jiddiy mojaroga tayyorlaning.

Manipulyatsiyani aniqlash. Manipulyatorlar xavfli hisoblanadi, chunki ular boshqa odamlarga nisbatan o‘z munosabatini kamdan-kam hollarda ko‘rsatadilar. Ular xushmuomala va yoqimli odamlarga o‘xshab ko‘rinishi mumkin, ammo ichlarida intrigalar to‘qib, maqsadlariga erishadilar. Manipulyatorlar bilan ishslash strategiyalarini o‘rganing.

Narsissizm. Narsistlar jamoaviy o‘yinchi bo‘la olishmaydi va ko‘pincha so‘zlashuvda “Biz”o‘rniga “Men” dan foydalanadilar. Ularning egosi (ichki meni) baland, shuning uchun ular doimo diqqat markazida bo‘lishni xohlashadi. Suhbat davomida oyog‘ingizga mahkam turing va hech narsada narsistlarga taslim bo‘lmang. Barcha so‘rov va talablarga o‘z dalillaringiz bilan javob bering va “yo‘q” deb aytинг.

Ko‘nikmalarni rivojlantirish. Qora triadaga moyil bo‘lgan odamlar bilan qanday munosabatda bo‘lishni o‘rganish uchun sizga quyidagi ko‘nikmalar kerak bo‘ladi:

- Empatiya
- Mojarolarni hal qilish qobiliyati
- Yuqori hissiy intellekt

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

- Tana tilini o‘qish qobiliyati
- Qat’iyli bo‘lish
- Keng dunyoqarash

Manipulyatorlar sizga kutilmagan paytda duch kelishi va ta’sir o‘tkizishi mumkin. Sizga har qanday holatda ham ushbu ko‘nikmalarzarur va ular hayotda sizga yordam beradi, shuning uchun vaqt ajrating va ularni o‘zingizda rivojlantirishni boshlang.

Umuman olganda, qora uchlik inson qalbining qorong‘u tomonlarini aks ettiradi va bu kompleks nomi bilan ramziy ma’no ifodalanadi. Boshqa tomondan, bu individual xususiyatlarning o‘ziga xos tomonlari bor. Xususan, ular o‘z egalariga muvaffaqiyatga erishishda, xizmat pillapoyalarida oson ko‘tarilishga yordam beradi. Bunday odamlarga tashkiliy ishlarni, turli guruh yoki jamoalarni va hokazolarni boshqarish osonroqdir. Bunday odamlar maqsadlariga erishishda juda samarali bo‘lishi mumkin, tavakkal qilishdan qo‘rqmaydilar, e’tiborni jalb qilaoladilar va qoida tariqasida o‘zlarini oson tanitadilar (agar o‘zlar xohlasa, albatta). Bunday qora uchlik egasining yaqinlari uchun muammo va ayni paytda psixolog uchun esa tavakkalchilikdir. Ko‘pgina psixologlarning fikriga ko‘ra, qora uchlikka ega bo‘lgan odamda psixologik muammo bor, bu odamni shaxsiyatning ichki disgarmoniyasiga va yaqin atrofdagi nizolarga olib keldi. Garchi, psixolog bilan maslahatlashish tajribamizga ko‘ra, bunday odamning yaqinlarida psixologik muammolar ko‘proq bo‘lsa-da – ular tashvishlanadilar, sabab izlaydilar, xafa bo‘lishadi, g‘azablanadilar, odamga yangi yondashuvlarni va psixologik yordamning yangi usullarini izlaydilar. “Shaxsning qora uchligi” deb ataladigan psixologik xususiyatlarning egasi, qoida tariqasida, psixologik jihatdan juda bardoshli va ba’zan hatto oson yashaydi, u o‘z hayotida hech narsani o‘zgartirmoqchi emas, hatto undan ham ko‘proq, lekin bir vaqtning o‘zida u yaqinlarida salbiy his-tuyg‘ularni paydo bo‘lishida katta hissaga ega. Va salbiy hisni paydo qilib shunday deydi: “Men nima qildim?! Ular juda g‘alati munosabatda bo‘lishdi ...”.

Adabiyotlar

1. Егорова М.С. Макиавеллизм в структуре личностных свойств. Вестник Пермского государственного педагогического университета. Серия 10, Дифференциальная психология, 2009, №. 1–2, 65–80.
2. Егорова М.С., Паршикова О.В., Ситникова М.А. Взаимосвязи диспозиционных черт личности и Темной триады. В кн.: Материалы

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

- юбилейной конференции Российского психологического общества «От истоков к современности», 2015. (в печати)
3. Знаков В.В. Психология понимания: Проблемы и перспективы. М: Институт психологии РАН, 2005.
 4. Калуцкая И.Н., Поддъяков А.Н. Представление о макиавеллизме: разнообразие подходов и оценок. Культурно-историческая психология, 2007, No. 4, 78–89.
 5. Abell L., Brewer G., Machiavellianism, self-monitoring, self-promotion and relational aggression on Facebook. Computers in Human Behavior, 2014, 36, 258–262.
 6. Arvan M. Bad news for conservatives? Moral judgments and the Dark Triad personality traits: A correlational study. Neuroethics, 2013, 6, 307–318.
 7. Baughman H.M., Jonason P.K., Lyons M., Vernon P.A. Liar pants on fire: Cheater strategies linked to the Dark Triad. Personality and Individual Differences, 2014, 71, 35–38.
 8. Rajabov Murodil Jumaboevich.TYPES OF Manipulation and expression of representative system in persons. galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 10, Issue 1, Jan. (2022).
 9. Ражабов М. Ж. ПСИХОЛИНГВИСТИК ЖАРАЁНДА МАНИПУЛЯЦИЯНИНГ РОЛИ //ИНОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ. – 2021. – Т. 4. – №. 7.
 10. Ражабов, М. Ж. "ПСИХОЛИНГВИСТИК ЖАРАЁНДА МАНИПУЛЯЦИЯНИНГ РОЛИ." ИНОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ 4.7 (2021).
 11. Ражабов, М. Ж. (2021). ПСИХОЛИНГВИСТИК ЖАРАЁНДА МАНИПУЛЯЦИЯНИНГ РОЛИ. ИНОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 4(7).
 12. Rajabov, MJ; Rajabova, XX; ,Self-consciousness of students in social and psychological mechanisms,Theoretical & Applied Science,,12,176-179,2019,Товарищество с ограниченной ответственностью Теоретическая и прикладная наука.
 - 13.Ражабов, МЖ; ,Психолингвистик жара ёнда манипуляциянинг роли, Инновации в педагогике и психологии,4,7,,2021,
 14. Murodil, Rajabov; ,The concept of makiavellism in the scientific psychological literature and the degree of mac-scale in a

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Los Angeles, California, USA on February 10th, 2023.

www.conferencezone.org

-
- person,ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal,11,5,1249-1257,2021,South Asian Academic Research Journals
15. Jumaboevich, Rajabov Murodil; ,TYPES OF MANIPULATION AND EXPRESSION OF REPRESENTATIVE SYSTEM IN PERSONS, Galaxy International Interdisciplinary Research Journal,10,1,122-126,2022,
16. Jumaboevich, Rajabov Murodil; , "Black Three in Personal Psychological Characteristics or Maciavelism, Psychopathy and Narsism",Eurasian Scientific Herald,8,,38-41,2022,
17. Ражабов, МуродилЖумабоевич; Бутаев, БаҳромжонШарофитдинович; ,ОИЛАВИЙМУНОСАБАТЛАРДАМАНИПУЛЯТИВТАҲСИРТАҲЛИЛ И, O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMUY TADQIQOTLAR JURNALI,1,8,132-137,2022,
18. Ражабов, ФДУМ;МУ ЛОҚОТДАГИ ҲАМКОРГАМУНОСАБ АТПСИХОЛОГИКМАНИПУЛЯЦ ИЯСИФАТИДА,Uzbek Scholar Journal,6,,44-46,2022,
- 19.Ражабов, ФДУМ; ,МУЛОҚОТЖАР АЁНИДАГИМАНИПУЛЯ ЦИЯМАНБАЛАРИ,Uzbek Scholar Journal,6,,14-16,2022,
20. Ражабов, Муродил Жумабоевич; Ражабова, Хуршида Хусанбоевна; , "МАНИПУЛЯЦИЯ ТУРЛАРИ ВА ОДАМЛАРДА РЕПРЕЗЕНТАТИВ ТИЗИМНИНГ ИФОДАЛАНИШИ: Ражабов Муродил Жумабоевич, Фаргона давлат университети катта ўқитувчиси",Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал,,6,262-266,2022.